Xalq og'zaki ijodi orqali bolalarga tabiatni asrash va unga g'amxo'rlik munosabatlarini shakllantirish usullari	741
<i>Bo'riyeva Fayyoz Baxodirovna</i>	
Maktab ta'limida o'quv tadqiqot ishlarini tashkil etish – pedagogik muammo sifatida	745
<i>Jurayeva Umida Yuldashevna</i>	
Texnologiya o'qituvchilarining professional kompetentligini shakllantirish texnologiyasi	748
<i>Qalandarova Urinposhsha Yuldashovna</i>	
Raqamli ta'lim vositalari yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish ..	752
<i>Xodiyeva Nilufar Sherzod qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik kompetentligini rivojlantirishni o'rganish – pedagogik muammo sifatida.....	756
<i>Toshpo'latova O'g'iloy Abdurahmon qizi</i>	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilari kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning didaktik imkoniyatlari	759
<i>Pardaeva Matonat Salimovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda nutqni rivojlantirish orqali emotsional intellektni shakllantirish.....	764
<i>Omonillayeva Maxfuza Ilyosjon qizi</i>	
Основные научные подходы различных учёных об организации самостоятельной работы студентов	768
<i>Чернова Татьяна Алексеевна</i>	
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi professor-o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'рни	772
<i>Fazlidjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat ta'limi samaradorligiga erishishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	775
<i>Xolikov Akmal Tajidinovich</i>	
Oliy ta'limda korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish.....	778
<i>Axmedova Dilmora Kobiljonovna</i>	
Психологическая устойчивость к стрессу: опыт и открытия в Узбекистане	781
<i>Туракулова Дурдона Боходировна</i>	
Virtual ta'lim sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda samaradorlikni oshirish	784
<i>Tajibayeva Xurshida Djumamuratovna, Pirmanov Mansur Qadiryevich</i>	
Развитие иноязычной межкультурной компетенции студентов в системе профессионально ориентированного языкового образования: роль паремий в формировании межкультурной коммуникации	788
<i>Амануллаева Камола Муминовна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining nutqini o'stirishda innovatsion metodikalarni qo'llash tendensiyasi.....	794
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i>	

Akademik ijro mahoratini rivojlantirishda xavaskor xor rahbarlar uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar	797
<i>Yuldosheva Sadoqat Iloxmonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivojlanishida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning me'yoriy-huquqiy asoslari	801
<i>Djamolova Noila Zayniddinovna</i>	
Ta'lim va tarbiya jarayonida ulug' mutafakkirlarning odob va axloqqa oid ilmiy merosidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari	807
<i>Ergasheva Dilnoza Mamasharifovna</i>	
Tayyorlov guruh bolalarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari	810
<i>G'afforova Hurriyat Yangiboyevna</i>	
Bo'lg'usi o'qituvchilarni media ta'limdan foydalanishga o'rgatish	814
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Bo'lajak pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari	817
<i>Jalolova Feruza Mirkamol qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirish muammolari va yechimlari	822
<i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasb motivlari barqarorligiga guruhii jipslikning ta'siri	827
<i>Jumayeva Malika Aliyevna</i>	
Jismoniy tarbiya darslari jarayonida maktab yoshidagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish	831
<i>Kamardinov Baxtiyor Kamardinovich, Azimqulova Shaxlo Baxtiyor qizi</i>	
Maktab va oila hamkorligida boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini she'r yodlash qobiliyatini shakllantirish	837
<i>Karimova Shoxsanam Islomovna</i>	
Turkistondagi jadidchilik harakatining o'ziga xosligi va maktablardagi ta'lim tizimi	840
<i>Karimova Zarrina</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshqaruvida ijobiy ijtimoiy munosabatlar muhitini shakllantirishdagi tashqi ta'sirlar	843
<i>Maryam Raximova</i>	
Tarbiya ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida: an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg'unligi	848
<i>Muhammadiyeva Feruza To'raikulovna</i>	
From Access to Success: Advancing Inclusive Education in Universities	852
<i>Nutfiyeva Dildora</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy tayyorgarligining pedagogik mexanizmlari	856
<i>O'tasheva Lola Shoto'rayevna</i>	
Kognitiv yondashuv asosida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida ingliz tilini tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligini o'rganish	859
<i>Qudratova Sultonposhsha Otabek qizi</i>	
Klinik amaliyotda tibbiyot talabalarining stressni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion metodlari	864
<i>Sobirov Qobuljon G'ofirjon o'g'li</i>	
Ingliz tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitishda leksik derivatsiyalarning ahamiyati	868
<i>Abdusattarov Mavlon Sherali o'g'li</i>	
Tasavvuf adabiyotining paydo bo'lish omillari	872
<i>Ahmadova Shohsanam Sodiq qizi</i>	
Ichki ishlar akademiyasi kursantlarining favqulodda vaziyatlarda qaror qabul qilish jarayonini takomillashtirishning nazariy metodologik asoslari	875
<i>Kadirova Sayyora Madaminovna</i>	
Maktab fizika kursini o'qitishda ekologik tarbiyani shakllantirishning pedagogik asoslari	878
<i>Karimov Abdurahmonjon Ma'rufjon o'g'li</i>	
Til o'rgatishda zamonaviy usullardan foydalanishning samaradorligi va joriy etish strategiyalari	882
<i>Muxammadjonova Nafisa Rustam qizi</i>	
O'quvchilarning fizika faniga oid umumiy kompetensiyalarini shakllantirishda elektron va mobil ta'lim platformalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari	885
<i>Najmiddinova Murat Kamolovich</i>	
Sun'iy intellekt asosida talabalarining falsafiy tafakkurini rivojlantirishning metodologik asoslari	890
<i>Nodirbekov Furqatbek Umarjon o'g'li</i>	



Jadidlarning milliy ta'lim paradigmasi asosida OTM talabalarida milliy identlikni (o'zlik) rivojlantirish.....	894
Ortiqboyev Soxibjon Inomjon o'g'li	
Shifokor shaxsini tarbiyalashda empatiya va axloqiy qadriyatlarning o'rni	897
Tajiboyeva Odinaxon Rustamjon qizi	
Features of Flipped Learning to Improve Speaking Proficiency	901
Tojiyeva Matluba Mahmud kizi	
Socio-Cultural Approach to Teaching English to Students of Economic Specialties	904
Xamdamova Nilufar Esanovna	
Pedagogik mahorat	908
Zakirova Difuza Ergashboyevna	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	912
Xabilova Sitara Tursunmurod qizi, Payg'amova Husnida	
Korpus asoslangan til pedagogikasini yuqori kurs ingliz tili ta'limiga joriy etishning nazariy jihatlari.....	915
Toshpulatova Mexriniso Kilichevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirishni pedagogik muammo sifatida o'rganish	919
Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich	
Talabalarning bilim o'zlashtirish darajasi va faolligini oshirishda differensial yondashuvning ahamiyati	925
Sultonova Farangiz Alisherovna	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozuv malakasini oshirish yo'llari	929
Boltayeva Barno Isakulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni milliy ruhda tarbiyalash metodikasini rivojlantirish.....	932
Qosimova Aziza Umarali qizi	
Дифференцированный подход как условие для преодоления дислексии у учащихся.....	935
Моминова Тойгул Боходир кизи	
Improving the Methodology of Developing Phonetic Competencies of Primary School Students	939
Zilolaxon Kenjayeva Saminjon kizi	
Bolalar tadbirkorligini rivojlantirishning zaruriyati.....	943
Axmadaliyeva Muxarramoy Olimjon qizi	
Assessing and Monitoring Pedagogical Creativity in Modern Education Processes.....	948
Abdulkhayev Abduvokhid Abdulbori ugli	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatli munosabatni shakllantirishning milliy an'ana va pedagogik tajribalar asosida tahlili	951
Achilov Obid Muzrobovich	
Maktabgacha ta'lim sohasida inson resurslarini rejalashtirishning ahamiyati va mehnat bozori tendensiyalari tahlili	956
N. Sh. Miryusupova	
Emotsional intellektning ahamiyati va uning psixologik hamda fiziologik xususiyatlari	960
Bahodirova Shahnoza Rustam qizi	
O'zbek tili darslarida o'quvchilarda PISA topshiriqlarini bajarish ko'nikmalarini shakllantirish	964
Kamshat Baymenova	
Pedagogik texnologiyalar zamonaviy o'quv jarayonining muhim omili sifatida	967
Kazakov Ne'mat Normurodovich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ kompetentlikni shakllantirishda kasbiy refleksiyaning psixologik-pedagogik asoslari	971
Komiljonova Dilyoraxon	
O'zbek xalq dostonlarini interfaol usullar yordamida o'qitish	973
Nurjanova Yulduz Shukirillayevna	
Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitishda fanlararo integratsiyani takomillashtirishning tarkibiy-funksional tuzilmasi	976
Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich	
Kasbiy maslahat – maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning samarali vositasi sifatida	980
Raxmatova Sevara Abdulloevna, Gulyamov Djaxangir Raxmatullaevich	
Umumkasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish imkoniyatlari	986
Saydullayeva Shahlo Sobir qizi	

Pedagogik modellashtirishning o'ziga xos jihatlari va nazariy asoslari.....	990
<i>Sharipov A'zamjon Axmadjonovich</i>	
Talabalarda tolerantlik ko'nikmalarini rivojlantirish omillari	994
<i>Valixanov Ilyos Ilxamovich</i>	
Ta'lim texnologiyalarini mashg'ulotlarda qo'llashning o'ziga xos jihatlari.....	998
<i>Valiyev Sarvar Abdusalimovich</i>	
Ishonch – ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida	1002
<i>Xo'jamova Kamola To'liqin qizi</i>	
Jahon va O'zbekiston tajribasida kasbiy muloqot kompetensiyalarini shakllantirish yondashuvlari	1006
<i>Rajapov Sulaymon Nuraddin o'g'li</i>	
Iqtisodchilarning kasbiy faoliyatida ingliz tilining o'rni va ahamiyati.....	1010
<i>Samandarova Nargiza Muxammadovna</i>	
Praksiologik yondashuv – pedagogik ta'limning metodologik asosi sifatida.....	1015
<i>Rashidova Zulayho Olimjon qizi</i>	
Talabalarga ingliz tilini o'rgatishda "pen pals" loyihasidan foydalanish modeli	1020
<i>Tuymanova Inobat Fozilovna</i>	
Gamifikatsiya asosida ingliz tili darslarini tashkil etish metodlari.....	1024
<i>Ahmadaliyeva Hilolaxon A'zamjon qizi</i>	
O'zbekistonda ingliz tilini o'rganayotgan yosh o'quvchilarda gapirishga bo'lgan xavotir darajasi: rol o'ynash intervensiyasi	1029
<i>Mannapova Maftunaxon</i>	
Ingliz tili darslarida o'quvchilarning grammatik ko'nikmalarini story-based learning usulidan foydalanib shakllantirish metodikasi.....	1033
<i>Xalilova Sevara Kamoliddin qizi</i>	
Integrating the Case Study Method Into Teaching Medical English: an Innovative Pedagogical Research.....	1037
<i>Xoshimova Azizaxon Saxobiddinova</i>	
Boshlang'ich sinf darslarini 4K modeli asosida tashkil qilishning ahamiyati va samaradorligi	1041
<i>Matqurbonova Sevara Ikromjon qizi</i>	
Критерии эффективности системного подхода в образовании и воспитании детей, находящихся на длительном лечении	1044
<i>Алимова Нигора Исраиловна</i>	
Развитие учебной мотивации через дифференцированный подход в преподавании физики.....	1049
<i>А. Б. Камалов, М. П. Серимбетова</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida media savodxonlikni shakllantirish metodikasi	1053
<i>Astanaqulova Nilufar Dilmurod qizi</i>	
Talabalarda web platformadan foydalanish asosida kompyuterli modellashtirish ko'nikmasini rivojlantirish	1058
<i>Xazratqulov Abduvohid Abdurauf o'g'li</i>	
Bo'lajak oligofrenopedagoglarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish	1062
<i>Gulyamova Aziza Anvarovna</i>	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish muammosining mavjud holati	1066
<i>Utanbayeva Dildora Abdixadirovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni qoidali o'yinlar orqali jismoniy va ruhiy rivojlantirishning shart-sharoitlari	1070
<i>Umarova Mehriniso Ibragim qizi</i>	

MAKTABGACHA TA'LIM SOHASIDA INSON RESURSLARINI REJALASHTIRISHNING AHAMIYATI VA MEHNAT BOZORI TENDENSIYALARI TAHLILI

N. Sh. Miryusupova

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inson resurslarini rejalashtirish masalalari hamda mehnat bozori tendensiyalari tahlil qilingan. Kadrlar siyosati, pedagoglarning malaka darajasi, kadrlar ehtiyoji tahlili va bugungi mehnat bozoridagi talablar asosida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan strategik yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ilmiy asoslangan rejalashtirish modellari orqali maktabgacha ta'lim tizimida barqaror rivojlanishga erishish imkoniyatlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: inson resurslarini rejalashtirish, strategiya, o'qitish, mehnat bozori tendensiyalari, malaka oshirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirish.

Abstract: This article examines the issues of human resource planning in preschool education institutions and analyzes current labor market trends. Based on personnel policy, teachers' qualification levels, staff demand analysis, and contemporary labor market requirements, strategic approaches aimed at improving the quality of education are proposed. The study highlights the opportunities for achieving sustainable development in preschool education through scientifically grounded planning models.

Key words: human resource planning, strategy, teaching, labor market trends, professional development, continuous career advancement.

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы планирования человеческих ресурсов в системе дошкольного образования и проведён анализ тенденций рынка труда. На основе кадровой политики, уровня квалификации педагогов, анализа потребности в кадрах и современных требований рынка труда предложены стратегические подходы, направленные на повышение качества образования. Показаны возможности достижения устойчивого развития в системе дошкольного образования через научно обоснованные модели планирования.

Ключевые слова: планирование человеческих ресурсов, стратегия, обучение, тенденции рынка труда, повышение квалификации, непрерывное профессиональное развитие.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim – inson hayotidagi ilk va eng muhim ta'lim bosqichi bo'lib, bu bosqichda olinadigan bilim, ko'nikma va tarbiya kelgusi rivojlanish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ushbu sohaning samaradorligi esa, birinchi navbatda, unda faoliyat yuritayotgan inson resurslariga, ya'ni pedagog va boshqa mutaxassislariga bog'liq. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inson resurslarini samarali rejalashtirish, boshqarish va mehnat bozori tendensiyalariga javob berishi juda muhim ahamiyatga ega.

Inson resurslari – bu tashkilotning mehnat salohiyatini tashkil etuvchi xodimlar majmuasidir. Maktabgacha ta'lim tizimida bunga tarbiyachilar, logopedlar, psixologlar, uslubchilar, boshqaruvchi kadrlar va yordamchi xodimlar kiradi.

Inson resurslarining samarali boshqarilishi ta'lim sifatini oshirish, bolalarning individual rivojlanishini ta'minlash hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish uchun sharoit yaratadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Azlarova inson resurslarini boshqarish bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida kadrlarni samarali rejalashtirish ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi uchun muhim omil ekanini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, inson resurslarini ilmiy asosda rejalashtirish pedagoglarning malakasini oshirish, mehnat unumdorligini ta'minlash hamda ta'lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Qosimova, Nazarova, Salixova va Ismailova tomonidan yaratilgan darslikda inson resurslarini boshqarishning nazariy asoslari hamda amaliy yo'nalishlari keng yoritilgan. Unda kadrlar ehtiyojini aniqlash, ularni qayta tayyorlash, malaka oshirish va zamonaviy talablar asosida faoliyatga jalb etish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim tizimida kadrlar siyosatini to'g'ri tashkil etishning afzalliklari ko'rsatib berilgan.

Kartashova tomonidan yozilgan "Upravleniye chelovecheskimi resursami" asarida esa inson resurslarini boshqarishda strategik yondashuvlarning o'rni alohida ta'kidlangan. Muallif boshqaruv tizimida inson omilini ustuvor qo'yish tashkilotning barqarorligi va samaradorligini oshirishini qayd etadi. YUNESKO va Yevropa Komissiyasi tomonidan taqdim etilgan ilmiy manbalarda esa maktabgacha ta'limda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, innovatsion dasturlarni joriy etish hamda xalqaro standartlarga moslashuvning ahamiyati keng yoritilgan.


TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma'lumotlarni olish va tahlil qilishning bir necha usullaridan foydalanildi. Avvalo, maktabgacha ta'lim sohasida inson resurslarini rejalashtirishga oid mavjud ilmiy adabiyotlar, darsliklar va xalqaro tashkilotlarning hisobotlari o'rganildi. Shuningdek, O'zbekiston va xorijiy tajribalarni aks ettiruvchi statistik ma'lumotlar, kadrlar soni, ularning malaka darajasi, hududiy taqsimoti va mehnat bozori ko'rsatkichlari yig'ildi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda taqqoslash, guruhlash, tizimli yondashuv va kontent-tahlil usullari qo'llanildi. Shu orqali maktabgacha ta'limdagi kadrlar siyosatining kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, mehnat bozorining hozirgi tendensiyalari bilan bog'liq xulosalar chiqarildi. Olingan natijalar asosida ta'lim sifatini oshirish hamda inson resurslarini samarali rejalashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Inson resurslarini rejalashtirish – bu kadrlar ehtiyojini aniqlash, ularni jalb qilish, malakasini oshirish, motivatsiya va mehnat unumdorligini ta'minlash bo'yicha strategik jarayondir.

Inson resurslarini rejalashtirish tashkilotning ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, xodimlar va umuman jamiyatning manfaatlarini ta'minlashga yo'naltirilgan. Inson resurslarini rejalashtirish, shuningdek, inson omiliga bo'lgan ehtiyojni oldindan aniqlashdir. Bu jarayon uch bosqichdan iborat.



Mavjud xodimlarni baholashda, eng avvalo, ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi omillarga, xususan mehnat bozorida vaziyatga e'tibor qaratmoq lozim. Zero, mehnat bozorida holat ko'p jihatdan quyidagilarga bog'liq:

- aholi soni, yoshi, jinsi salmog'idagi o'zgarishlarga;
- tarmoq va hududiy bandlikdagi o'zgarishlarga;
- qo'shimcha ishchi kuchini yollash darajasiga;
- ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'atiga;
- mehnat resurslarini boshqarish usuliga.

Ichki omillarni baholash uchun quyidagi ma'lumotlar zarur:

- doimiy band bo'lgan xodimlar soni, familiyasi, yashash joyi, ishga qabul qilingan vaqti;
- xodimlarning tarkibi (malakasi, mutaxassisligi, yosh tarkibi, milliy tarkibi, nogironligi borligi, ishchi va xizmatchilar);
- xodimlar qo'nimsizligi;



- ish kunining davomligi (to'liq yoki qisman bandligi, necha va qaysi smenada ishlashi, ta'tilining davomiyligi);
- ish haqi, uning tarkibi, qo'shimcha ish haqi, tarif yoki tarifdan yuqori to'lovlari;
- davlat yoki huquqiy tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan sotsial-maishiy xizmatlar (sotsial ehtiyojlarga ajratiladigan mablag'lar).

Birinchi bosqichda tashkilotning maqsadlaridan kelib chiqqan holda asosiy vazifalar belgilab olinadi. Bu vazifalar har bir ish joyida, kerakli vaqtda zaruriy miqdorda va sifatli mehnat samaradorligini ta'minlashdan iborat. Albatta, inson resurslarini rejalashtirishning boshqa vazifalari ham mavjud. Ularga personal mehnati samaradorligini rag'batlantirish kiradi.

Inson resurslarini rejalashtirishning ikkinchi bosqichida tashkilot rivojlanishi va yangilanishining umumiy sharoitlari bilan bog'liq holda kadrlar strategiyasi ishlab chiqiladi.

Inson resurslarini rejalashtirish – tashkilotda rejalashtirishning tashkiliy qismidir. Agar inson resurslarini rejalashtirishga e'tibor bilan qaralmasa, uning samarasi past bo'ladi. Chunki maktabgacha ta'limda inson resurslari masalalari bo'yicha qarorlarga tashkilotning ta'lim xizmatlari ko'rsatish rejasi, moliyaviy rejasi kabi rejalari sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida, ushbu rejalarda kadrlar masalasini e'tiborga olmaslik salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun maktabgacha ta'limda inson resurslarini rejalashtirish umumiy rejalashtirish jarayoniga integratsiyalashgan bo'lishi lozim.

Ayni paytda maktabgacha ta'lim tizimida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular:

- respublikamizning chekka hududlarida yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lmagan tarbiyachilar faoliyat olib bormoqda;
- yanada ko'proq maktabgacha ta'lim tashkilotlari ochilgan sari kadrlarga ehtiyoj ham ortib bormoqda;
- ish haqining kamligi, ijtimoiy kafolatlarining yetarli emasligi kadrlar qo'nimsizligiga olib kelmoqda.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan mavjud muammolarni hal etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-231-son¹ qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrda "Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida" VMQ-867-son qarori qabul qilindi. Ushbu qarorlar aynan maktabgacha ta'lim tizimida mavjud yuqoridagi muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim tizimi yangi bosqichga chiqqani sari, tizimda faoliyat yuritayotgan xodimlarga nisbatan ham talablar ortib bormoqda. Bugungi mehnat bozori tendensiyasiga ko'ra maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan barcha pedagog xodimlar raqamli kompetentlikka ega bo'lishi, kengaytirilgan ta'lim dasturlaridan foydalana olishi, yangiliklarga tayyor bo'lishi va moslashuvchanligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli kompetentlikka egalik – bu insonning raqamli texnologiyalardan samarali, xavfsiz va maqsadli foydalana olish qobiliyatidir. Bu nafaqat kompyuter yoki smartfondan foydalanishni, balki raqamli ma'lumotlarni tahlil qilish, raqamli muhitda muloqot qilish va raqamli xavfsizlikni ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Raqamli kompetentlik tushunchasi Yevropa Ittifoqi (DigComp) standarti bo'yicha quyidagi besh asosiy sohani o'z ichiga oladi:

- ma'lumotni topa olish, tanlay bilish, baholash va internetdagi manbalar ishonchligini aniqlash;
- elektron pochta, messenjerlar, videokonferensiya, ijtimoiy tarmoqlar orqali onlayn muhitda madaniyatli va odobli muloqot qila olish;
- matn, rasm, video, prezentatsiya yarata olish va mualliflik huquqiga rioya qilish;
- shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va onlayn tahdidlarni (zararli dasturlarni) tanish;
- raqamli vositalar yordamida muammolarni hal qilish hamda yangi dasturlar va texnologiyalarni o'zlashtirishga tayyor bo'lish.

Nima uchun raqamli kompetentlik muhim? Chunki zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlaydi, ta'limda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi, shaxsiy hayotda ham kundalik vazifalarni yengil hal etish imkonini beradi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-231-son qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-6981085>



Maktabgacha ta'limda kengaytirilgan ta'lim dasturlari – bu bolalarning o'sish va rivojlanish ehtiyojlarini har tomonlama qondirishga qaratilgan, standart (bazaviy) dasturga qo'shimcha ravishda kiritilgan, ta'lim mazmunini boyituvchi, innovatsion va ijodiy yondashuvlarga asoslangan dasturlardir. Bular bolalarda muayyan qobiliyat va ko'nikmalarni (intellektual, ijodiy, jismoniy, axloqiy) chuqurroq rivojlantirish maqsadida joriy etiladigan qo'shimcha (faoliyatga asoslangan) dasturlardir.

Qanday turdagi kengaytirilgan dasturlar mavjud?

- STEM/STEAM dasturlari (bolalarda tahlil qilish, loyiha asosida o'ylash, fanga qiziqishni rivojlantiradi);
- kichik yoshdagi bolalarga robototexnika va kodlash dasturlarini o'rgatish (logik fikrlash va texnologik ongini shakllantiradi);
- chet tillarini erta o'rgatish dasturlari (ijtimoiy muloqot va til qobiliyatini rivojlantiradi);
- musiqa, san'at va teatr elementlariga boy dasturlar;
- axloqiy-ma'naviy tarbiya dasturlari;
- integratsiyalashgan tabiatshunoslik yoki ekologiyaga oid dasturlar;
- qo'l mehnati va dizayn bo'yicha mashg'ulotlar (motorika, tasavvur va dizaynerlik qobiliyatini rivojlantiradi).

Pedagogning yangiliklarga tayyor bo'lishi va tez moslashuvchanligi uning shaxsiy rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi.

Inson resurslarini boshqarishda mehnat bozori tendensiyalari – bu IRB sohasini zamonaviylashtirish va bozordagi o'zgarishlarga moslashtirishga qaratilgan yo'nalishlardir. Bugungi kunda raqobatbardosh tashkilotlar xodimlarga qo'shimcha qiymat berish, ularni rivojlantirish va saqlab qolish orqali o'z strategik ustunligini ta'minlashga intilayotgani IRB tendensiyalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tizimida inson resurslarini samarali rejalashtirish ta'lim sifatini oshirish va mehnat bozorida talablarni qondirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va doimiy qo'llab-quvvatlash tizimi yetarlicha kuchli bo'lmasa, ta'lim jarayonida barqaror natijalarga erishish mushkul bo'ladi. Shu bois inson resurslarini boshqarishda strategik yondashuvlar, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish hamda kengaytirilgan ta'lim dasturlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Taklif etilishicha, kadrlar malakasini oshirishning uzluksiz tizimi yanada takomillashtirilsin, pedagoglar uchun innovatsion o'quv dasturlari kengaytirilsin, chekka hududlarda ishlovchi xodimlar moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlansin. Shuningdek, davlat siyosati va mehnat bozori talablari uyg'unlashtirilgan holda, maktabgacha ta'lim sohasida inson resurslarini rivojlantirishning barqaror modeli ishlab chiqilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-231-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrda "Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida" VMQ-867-son qarori.
3. Azlarova M. M. Inson resurslarini boshqarish: o'quv qo'llanma. – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 207 b.
4. Qosimova D. S., Nazarova G. G., Salixova N. M., Ismailova N. S. Inson resurslarini boshqarish: Darslik. – T.: TDIU, 2011.
5. Kartashova L. V. Upravleniye chelovecheskimi resursami: Uchebnik. – M.: INFRA-M, 2014.
6. YUNESKO. (2019). Early Childhood Care and Education (ECCE): Building the Foundations of Learning. Paris.
7. European Commission. (2018). DigComp 2.1: The Digital Competence Framework for Citizens with Eight Proficiency Levels and Examples of Use. Luxembourg: Publications Office of the European Union.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.